



**ME'MORIY BEZAKLARDA YIL FASLLARI RAMZLARINING RAMZIY
TAHLILI VA UNING TARBIYAVIY AHAMIYATI**

Xoshimova Umida Talat qizi

Mustaqil tadqiqotchi, Toshkent davlat pedagogika universiteti,

umidaxoshimova08@mail.ru

Tel.: +998909848808

Annotatsiya: Bobur va boburiylar sulolasi arxitekturasi borasida so'z yuritadigan bo'lsak, Hindistonda barpo etilgan arxitektura namunalari go'zalligi, betakrorligi, rang va ramz jihatidan boy falsafiy g'oyaga egaligi bilan boshqa madaniyatlardan ajralib turadi.

Аннотация: Говоря об архитектуре Бабура и династии Бабура, архитектурные образцы, построенные в Индии, выделяются на фоне других культур своей красотой, уникальностью и богатыми философскими идеями с точки зрения цвета и символики.

Abstract: Speaking of the architecture of Babur and the Babur dynasty, the architectural examples built in India stand out from other cultures for their beauty, uniqueness, and rich philosophical ideas in terms of color and symbolism.

Kalit so'zlar: Hindiston, arxitektura, Jaypur, mis darvozalar, hind xudolari, ramzlar, bezaklar, Pritam Nivas Chovk hovlisi, yil fasllari.

Ключевые слова: Индия, архитектура, Джайпур, медные ворота, индийские боги, символы, украшения, двор Притам Нивас Чоук, времена года.

Key words: India, architecture, Jaipur, copper gates, Indian gods, symbols, decorations, Pritam Niwas Chowk courtyard, seasons.

Zahiriddin Muhammad Bobur atoqli davlat arbobi, iste'dodli shoir, adib, tarixchi, olim, shu bilan birga tarjimondir [1;74-b]. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Bobur Mirzo xalqimizning buyuk farzandi. Adabiyot, ilm, ma'rifat nuqtai nazaridan u hamon yashayapti. O'zligimizni anglab, buyuk tariximizni yoshlarga tushuntirsak, ilm-ma'rifatni rivojlantirsak, hech qachon kam bo'lmaymiz!" deb Zahiriddin Muhammad Boburga yuksak baho bergan. 300 yildan ortiq hukmronligi davrida boburiylardan Afg'oniston, Pokiston va Hindistonda bog'-rog'lar, masjid, madrasalar, betakror qasrlar, ulug' obidalar, shuningdek, nihoyatda boy ijodiy-ma'naviy meros qoldi [13].

Bobur ijodida haqiqiy barkamol inson timsoli madh etiladi, ulug'lanadi. U doimo inson qadr-qimmatini yuqori tutadi, insonlarni kamtarlikka, halollikka, poklikka undaydi. Bobur ijodiy merosidan ta'lim jarayonida foydalanish orqali, avvalo talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mumkin hamda ularda insonparvarlik, kamtarlik, imon-e'tiqod kabi axloqiy fazilatlar yuksaltiriladi [1;75-b]. Bobur va boburiylar ijodining falsafiy g'oyalari va tarbiyaviy ahamiyatini g'azal va asarlardan tashqari me'morchilikda ham o'z aksini topadi.

Zahiriddin Muhammad Boburning istilosi Hindistonning siyosati, madaniyati, arxitekturasi va diniga katta o'zgarishlarni olib keldi. Hindistonga islom dini kirib kelishi





natijasida arxitekturada yangi turli qurilmalar paydo bo'la boshladi. Jumladan, masjidlar, saroylar, maqbaralar, madrasalar qurila boshlandi. Hind me'morchiligida yangilik bu arkalar va gumbazlardir. Qurilishga minora hamda ayvon qo'shildi, ko'p joyda haykallar o'rniga ornament ishlatildi [3; 71-b].

Boburiylar me'morchiligi an'alarini Jaypur Shahar saroyi qiyosida ko'rishimiz mumkin. Jaypur shahri markazida joylashgan Shahar saroyi chegara devori bilan o'ralgan bo'lib, eng qadimgi bino va majmuaning markazi 1724-1734 yillarda qurilgan [8; 21-b]. Shahar saroyini nafis va maftunkor bezaklar bilan burkangan deb ayta olamiz. Saroy qizil va pushti qumtoshdan, yaltiroq oq marmardan qurilgan bo'lib, qadimiy san'at asarlari, murakkab detallar va kaleydoskopik naqshlar bilan to'ldirilgan. Shahar saroyi maftunkor yetti qavatli qal'a, antiqa muzey, keng hovlilar, hashamatli xonalar, mukammal tartiblangan bog'lar va maftunkor arklarni o'z ichiga oladi - barchasi mukammallik uchun puxta ishlab chiqilgan. Saroyning dabdabali dizayni ikki iste'dodli arxitektor: bengaliyalik Vidyadhar Bhattacharya va britaniyalik Samuel Svinton Jeykobga tegishli [9].

Majmuadagi eng ko'zga ko'ringan va eng ko'p tashrif buyuriladigan inshootlar - Chandra Mahal, Muborak Mahal, Shri Govind Dev ibodatxonasi, Pritam Nivas Chovk hovlisi va Shahar saroyi muzeyi [10].

Biz tadqiq etmoqchi bo'lgan butun dunyoga mashxur yil fasllari ramzlarini ifodalagan eshiklar Shahar saroyining Pritam Nivas Chovk hovlisida joylashgan. Bu hovliga Ridhi Sidhi Pol darvozasi orqali kiriladi. Pritam Nivas Chovk hovlisi xalq tilida "Muhabbat hovlisi" deb ham nomlanadi. Ushbu noyob darvozali hovliga kirganingizda, sizni mahorat bilan ishlangan to'rtta mis eshik kutib oladi, ular albatta ko'zni qamashtiradi. Jonli ranglar bilan to'ldirilgan va qimmatbaho naqshlar bilan bezatilgan bu darvoza juda bejirim.

Darvozalar to'rt faslni anglatadi va hind xudolarini sharaflaydi. Lotus darvozasi: yozni ifodalaydi va Shivaga bag'ishlangan. Tovus darvozasi: kuz va Vishnu. Bu darvoza sayyohlar orasida eng mashhuri hisoblanadi. Pushti darvoza: qish va Devi. Laheriya darvozasi: bahor va Ganesha. Laheriya darvozasi to'lqin naqshlari bilan belgilangan. Bu darvoza yashil rangga ega va o'zgarish mavsumini ifodalaydi [9].

Birinchi eshik "Lotus darvozasi" deb nomlanadi (1-a rasm). Lotus -komillik ramzi, tinchlik ramzi, poklik ramzi. Buddizmdagi lotus abadiy dushmanlar ustidan g'alaba qozonish ramzi va mukammallik holatiga erishish yo'li [11]. Lotus guli botqoqlikdan mashaqaqat bilan qorong'ulikdan yorib yorug'likka chiqishiga komillik timsoliga tenglashtiriladi.

Shiva- hindlarning muqaddas hudolaridan biri hisoblanadi. Shivachilik an'alarida Shiva koinotni yaratuvchi, himoya qiluvchi va o'zgartiruvchi Oliy xudo hisoblanadi [10]. Tasvirda Xudo Shivaning Lotus guli ustida o'tirganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Bu 1000 ta gulbargli lotus ustida o'tirgan Shivaning ulug'vor oyoqlariga yetganlar yer yuzida uzoq umr ko'rishadi.






a)



b)



d)



e)

1-rasm. Pritam Nivas Chovk hovlisi mis eshiklari: a) Lotus darvozasi; b) Tovus darvozasi; d) Pushti darvoza; e) Laheriya darvozasi.

Gullash davri: iyul o'rtalaridan avgust oyining o'rtalariga qadar. O'simlik juda katta bo'lib, balandligi 2 metrga etadi, barglarning diametri 1 metrgacha, ochiq gullar esa taxminan 30 santimetrga etadi. Shu sababli ham ushbu eshik yoz faslini ifodalaydi.

Keyingi darvoza "Tovus darvozasi" nomi bilan mashhur (1-b rasm). Tovus darvozasini sinchklab kuzatsak Tuvus tasvirining relyef uslubda nafis qilib ishlangani bu eshikka "Tovus" darvozasi nomi berilgani bejiz emasligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Tovus – go'zallik ramzi. Tovusni go'zal qush bo'lgani sababli, amaliy san'at turlari ganchkorlik, naqqoshlik, misgarlik, kashtachilik, kandakorlik va zardo'zlik kabi turlarida o'z o'rnini topgan. Tovus patlarini yoyganda olam go'zalligini ko'rishi mumkin. Tovuslarni simmetrik berilishi til va dil go'zalligini bildiradi. Tovus – go'zallik ramzi. Tovusni go'zal qush bo'lgani sababli, amaliy san'at turlari ganchkorlik, naqqoshlik, misgarlik, kashtachilik, kandakorlik va zardo'zlik kabi turlarida o'z o'rnini topgan. Tovus patlarini yoyganda olam go'zalligini ko'rishi mumkin. Tovuslarni simmetrik berilishi til va dil go'zalligini bildiradi [2; 319-b.].



Bundan tashqari tovuş tasviri eshikning ikki tomoniga simmetrik tarzda tovuş ustida o'tirgan ayol tasviri bilan ifodalangan. Izlanishlar shuni ko'rsatdiki, Tovus darvozasi Vishnu ma'budining sharafiga qurilganligi ramziy tahlilda o'z aksini topmadi. Sababi, tovuş ustida ayol tasviri ifodalangan.

Tadqiqot doirasida Tovus qushi va Hind ilohiy ma'budasi Sarasvati bilan bog'liq afsonasi xalq orasida mashxurligiga guvoh bo'ldik. Sarasvati ma'budasi donolik, san'at va bilim ma'budasi timsolida namoyon bo'ladi [12]. Sarasvati ma'budasi qo'lidagi musiqa asbobi va peshtoq tasviridagi ayol qo'lidagi musiqa asbobi mutanosibligi ma'lum bo'ldi (5-rasm). Bu musiqa asbobi Vina deb nomlanadi [10]. Peshtoqda ifodalangan sariq, qizil, oq to'lqinsimon chiziq ranglari kuz fasliga ishora qiladi.

1-d rasmda Pushti darvoza ifodalangan. Pushti darvoza bir qarashda darvozada pushti rangdan ko'p foydalanilgani darvozaga ayni nom berilganiga dalil bo'la oladi. Eshik tepasida quyosh tasviri ifodalanilgan. Quyosh tasviridan pastroqda besh qirrali yulduzdan qor parchasi ramzida foydalanilgan. Quyosh tasviri ortidagi bezaklar go'yoki qish faslining nafisligiga ishora qilgandek ko'rinadi. Peshtoqda pushti fonda tasvirlangan yaproqlar qaxraton qish tugab, ketidan maftunkor bahor kelishini ifoda qilmoqda.

Laheriya darvozasi – bir qarashda to'lqinlarni ifoda etgan darvoza nomidan kelib chiqib, hind tilida “लहर” – “to'lqin” ma'nosini anglatadi (4-e rasm). To'lqin- hayot notekisligi, bir maromda emasligi, jo'shqin va o'zgaruvchanligini ifodalaydi. Yashil rang-farovonlik va yangi boshlanishlarni anglatadi, tinchlik va osoyishtalikni keltirib chiqaradi, salbiy his-tuyg'ularni yo'q qilishga, diqqatni jamlashga va qaror qabul qilishga yordam beradi. Yashil rang yangilanish ramzi sifatida ifoda etilgani bilan Bahor fasliga qiyoslangani o'z aksini topadi. Laheriya darvozasi bundan tashqari buddizmning Ganesha hudosi sharafiga qurilgan. Ganesha yoki Ganapati - fil boshli hindularning donolik va farovonlik xudosi. Hind ilohlari orasida eng mashhur va hurmatli xudolaridan biri [10].

Yuqorida keltirilgan tahlillardan bezaklardagi falsafiy g'oya va uning talabalarga tarbiyaviy ahamiyati quyida keltiriladi:

➤ 1-a rasmdagi Lotus darvozasi bezaklaridagi falsafiy g'oya quyidagicha: Inson hayotdagi mashaqqatlarni loyus guli botqoqlikni yorib, yozda yayrab yashnagani kabi yengib o'tsa, albatta uni hayotda yorug' kunlar kutadi.

➤ 1-b rasmda ifodalangan Tovus darvozasi bezaklari “Tovus timsoli kabi go'zallikka oshno san'atkorlar uchun kuz faslini ilhom beruvchi fasl” ekaniga urg'u bermoqda.

➤ 1-d rasmdagi pushti darvozasi bezaklari ramziy tahlili shuni ko'rsatadiki: “Qish fasli qaxraton sovuqligi bilan inson jismiga sovuqlik olib kelsada, qishdagi sokinlik va jo'shqinlikning qorishmasidan inson qalbi pushti rang kabi qaynoqlik, va sokinlikni his qilib, oppoq qorlar singari ezgulikka intilib yashashilozim”.

➤ So'nggi Laheriya darvozasi bezaklari “To'lqinsimon chiziqlar singari inson hayotida qiyinchiliklarga duch kelishi va buni ortida qiyinchiliklarni yengib o'tib to'g'ri xulosa



chiqarsa bahor fasli singari kamolotga yetishi mumkin” degan falsafiy g’oya namoyon bo’ladi.

Boburiylar me’morchiligi bezaklarining tarbiyaviy ahamiyati haqida so’z yuritadigan bo’lsak, talaba qiyinchiliklarga taslim bo’lmasligi lozimligi, olg’a intilib maqsadiga tomon ildam harakat qilishi, ezgulikni shior qilib, doimo o’z ustida ishlashi, donolik va mehnatsevarlik fazilatlarini o’zida jo qilib, mantiqiy fikrlashi va dunyoqarashi rivojlanishi orqali kamolotga yetishishi mumkinligiga ishora qilingan.

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash lozimki, boburiylar arxitekturasi go’zalligi va rang barangligi, hamda ramzlarga boy bezaklari bilan kishi e’tiborini tortadi. Bezaklardagi falsafiy g’oya bilan inson ruhiyati, dunyoqarashi, tarbiyaviy fazilatlariga o’z tasirini ko’rsatadi. Bu bezakar Bobur va boburiylar sulolasi ijodi, tafakkuri, g’oyasini o’rganish bizga ma’naviy, madaniy, o’lmas e’toqd, tarbiya va vatanparvarlik tuyg’ularini tarannum etishi namoyon bo’ldi. Bobur va boburiylar merosini umummadaniy merosi sifatida butun dunyoda e’tirof etilishini inobatga olib, bu madaniy merosni o’rganishda davom etishimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Булатов С.С. Саипова М.С. Бадий тахлил тамойирллари. (Монография) –Т.: «Фан ва технолология», 2016.
2. Рамзлар энциклопедияси. Тузувчилар: С. С. Булатов, М. С. Соипова. – Т.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2021. 928 bet.
3. N.D.Abdullayeva. San’at tarixi. Toshkent-“O’zbekiston”, NMDU-2006; 71 b.
4. Деменова, В. В. Искусство Индии : [учеб. пособие] /М-во образования и науки рос. Федерации, Урал. федер. ун-т. — Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, 2016. — 116 с. ; 6 с.
5. Percy Brown. INDIAN ARCHITECTURE (Islamic period). D. B. TARAPOREVALA SONS & CO. PRIVATE LTD. Seventh Reprint 1981, 42.
6. Susuan.N.. The Mughal Garden as Design Module for the Jaipur City Plan. Journal of the Society of Architectural Historians, University of California Press ;Vol. 72, No. 1 (March 2013), pp. 28-47
7. Joseph Tieffenthaler, Anquetil du Perron, and James Rennell, Description Historique et Géographique de l’Inde, trans. Jean Bernoulli, 1st ed., 3 vols. (Berlin: Chrétien Sigismond Spencer, 1786).
8. Centre for cultural resources and cultural training. Forts, Palaces and Havelis of Rajasthan. New Delhi; -2015. 21 p.

Elektron adabiyotlar

9. www.tourister.ru
10. www-oum.ru
11. ru.wikipedia.org
12. dzen.ru
13. insonhuquqlari.uz

